QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.003

# YANGI O’ZBEKISTON DAVRIDA TIBBIYOTDAGI YANGILANISHLAR

***Gavhar Muminova***
*O’z FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, professor*
***Oydinoy Ochilova***
*Osiyo texnologiyalar universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar, tibbiyot sohasidagi yangilanishlar va ularning tarixiy ahamiyati tahlil etiladi. Xususan, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy diagnostika va davolash usullarini joriy etish hamda tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, sog‘liqni saqlash, tibbiyot, tibbiy islohotlar, tibbiy xizmat, zamonaviy diagnostika, ixtisoslashtirilgan tibbiyot, raqamli tibbiyot, xalqaro hamkorlik.

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, осуществляемые в системе здравоохранения Нового Узбекистана, обновления в медицинской сфере и их историческое значение. Особое внимание уделяется повышению качества медицинского обслуживания, совершенствованию первичной медико-санитарной помощи, развитию деятельности специализированных медицинских центров, внедрению современных методов диагностики и лечения, а также укреплению материально-технической базы медицинских учреждений.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, здравоохранение, медицина, медицинские реформы, медицинское обслуживание, современная диагностика, специализированная медицина, цифровая медицина, международное сотрудничество.

**Abstract:** This article analyzes the reforms implemented in the healthcare system during the New Uzbekistan period, the transformations in the medical sector, and their historical significance. Particular attention is paid to improving the quality of medical services, enhancing primary healthcare, developing specialized medical centers, introducing modern diagnostic and treatment methods, and strengthening the material and technical infrastructure of medical institutions.

**Keywords:** New Uzbekistan, healthcare, medicine, medical reforms, medical services, modern diagnostics, specialized medicine, digital healthcare, international cooperation.

Sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish va tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yangi zamonaviy yo‘nalishlar, innovatsion tibbiy texnologiyalar va noyob amaliyotlar keng joriy etildi. Prezidentimiz tomonidan belgilangan ustuvor vazifalar asosida ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlar faoliyati takomillashtirilib, respublika va hududlarda yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari, jumladan buyrak, jigar va o‘zak hujayra transplantatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida xorijiy mutaxassislar ishtirokida robotlashtirilgan operatsiyalar, onkologiya, kardiologiya va genetik diagnostika sohalarida ilg‘or usullar joriy etildi.

Ixtisoslashgan tibbiyotni rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Quvonarlisi, sohadagi islohotlar natijasida bir qancha murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘zimizda amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. Xususan, yurtimizda bugungacha 500 dan ortiq buyrak, 10 ga yaqin jigar va 35 ta o‘zak hujayra operatsiyalari o‘tkazildi. Ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyatining taraqqiy etib borishi, hududlardagi filiallari ortib borishi natijasida ko‘plab bemorlarga yashash joyining o‘zida yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatilmoqda. Shu bilan birga, transplantatsiya operatsiyalari o‘tkazilayotgani tufayli yuzlab fuqarolarning yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari uchun chet mamlakatlarga borishiga deyarli hojat qolmadi[1].

Yurtimizda tibbiyotning jadallik bilan rivojlanayotganini shu vaqtgacha jazm etilmagan o‘ta murakkab va noyob operatsiyalar o‘zimizda muvaffaqqiyatli amalga oshirila boshlanishida ham ko‘rish mumkin. Bu borada so‘nggi yillarda muhim loyihalar amalga oshirildii. Xorijdagi tibbiy klinikalar bilan hamkorlikda qator xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etildi. Shu bilan birga, davlat tibbiyot muassasalari faoliyati ham zamon talabidan kelib chiqib takomillashib bordi.

2019 yilga kelib mamlakatimizda xirurgiya, kardiologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya, endokrinologiya, onkologiya, nevrologiya, allergologiya kabi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni 16 taga yetdi. Shuningdek, tumanlarda 306 ta ixtisoslashgan bo‘limlar, viloyat markazlarida respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 10 ta filiali tashkil qilindi. Quvonarlisi, 2019 yilning o‘tgan olti oyi davomida Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan hududlarda 53,8 mingdan ortiq aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, 1358 ta operativ muolajalar bajarildi, shulardan 775 tasi yuqori texnologiyali operatsiyalardir. Natijada yuqori texnologiyali operatsiyalar ulushi 57 foizga yetdi. Yangi diagnostik usullar soni 144 tani va yangi davolash usullari 208 tani tashkil qildi.

Jumladan, Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida buyrak ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha operatsiyalar muvaffaqiyatli bajarib kelindi. 2018 yili esa Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida mamlakatimiz tibbiyoti tarixida birinchi marta jigarni ko‘chirib o‘tkazish operatsiyasi yuqori natija bilan o‘tkazildi.

[1] O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2021-yil 20-avgust.

Sirdaryo viloyat kardiologiya dispanserida 2017-2018 yillarda investitsiya dasturiga kiritilib 8 milliard 300 million so‘mlik qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi va zamonaviy binoga ega bo‘ldi. Mazkur dispanserga Xitoy, Belgiya, Vengriya, Rossiya, Shveytsariya, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Turkiya, Italiya, Polsha kabi rivojlangan mamlakatlardan yangi zamonaviy apparaturalar keltirildi. Bu keltirilgan apparatlar yurak qon-tomir kasalliklarini tashxislash va davolashida qonni umumiy analizlarini aniqlashda, qondan plazmani ajratib olishda, qondagi gazni aniqlashda, hayot uchun muhim bo‘lgan a’zolarni holatini aniqlashda, bemorlarga sutka davomida dorilarni porsiyaga ajratgan holda yetkazib berishda muhim o‘rin tutdi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan viloyat kardiologiya dispanseriga 1 million 600 ming AQSH dollariga teng miqdordagi 23 turdagi 88 dona zamonaviy tibbiyot jihozlari olib kelib o‘rnatildi. Yangi endovaskulyar xi rurgiya bo‘limi ochilib, mazkur bo‘limga koronarografiya apparati olib kelib o‘rnatildi. Ushbu keltirilgan apparat orqali bemorlarning yurak koronar qon tomirlari, uyqu arteriallari va son arteriyalarini tekshiruvdan o‘tkazish, muhtoj bo‘lgan bemorlarga stend quyish amaliyoti Sirdaryoda o‘tkazildi[2].

O‘zbekistonda xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikda buyrak, jigar va o‘zak hujayra transplantatsiyasi bajarilishi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, Navoiy viloyatida 2020-yilda ilk bor ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida buyrak ko‘chirib o‘tkazish amaliyoti amalga oshirildi[3]. Bunga qadar esa bunday amaliyot xorijda katta mablag‘ evaziga amalga oshirilar edi. Birgina Navoiy viloyatida 75 nafar bemor surunkali buyrak yetishmovchiligi sababli 2020-yilda rejali gemodializ seans olib, tibbiy nuqtai nazardan ularning barchasi buyrak ko‘chirib o‘tkazishga muhtojligi aniqlandi.

Shuningdek, Navoiy viloyatda yurak amaliyoti va buyrak transplantatsiyasini o‘tkazish ham yo‘lga qo‘yildi. 2021-yilda viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida tug‘ma yurak nuqsoni bor bemor bolalarda birinchi marta sun’iy qon aylantirish apparati orqali ochiq yurak jarrohlik amaliyotlari va buyrak transplantatsiyasi yo‘lga qo‘yildi[4]. Natijada tug‘ma yurak nuqsoni bor bolalarning sog‘lig‘ida ijobiy o‘zgarishlar sezildi va mazkur kasallik bilan kurash olib boruvchi mutaxassislar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2017–2021 yillarda viloyatga 54 nafar xorijlik mutaxassislar taklif qilinib, ular bilan hamkorlikda 100 nafardan ziyod bemorlarda murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi. Ma’lumki, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar toifasiga kiritilgan yomon sifatli o‘smalar tibbiyotdagi dolzarb va alohida muzokaralarga sabab bo‘luvchi kasalliklar qatoriga kiritilgan bo‘lib, ular qator yillar mobaynida o‘zlariga nafaqat onkologlar, qolaversa barcha soha va yo‘nalishlardagi tibbiyot xodimlarining alohida e’tiborini jalb etib keldi. Onkologik kasalliklar butun dunyoda dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammodir. Bunday kasallikka chalinish ko‘rsatkichi yildan yilga o‘sib, yer yuzida har yili 15 mingga yaqin birlamchi saraton holati aniqlangan. Jumladan, O‘zbekistonda ham 100 mingdan ortiq aholi onkologik kasalliklar bilan kasallanib hisobda turdi[5].

---

[2] Илк маротаба юракда мураккаб жаррохлик амалиёти ўтказилди // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2021-yil 26-fevral.

[3] Эшбоев Т. Навоий вилоят кўп тармокли тиббиёт марказида илк бор буйрак кўчириб ўтказилди // Халқ сўзи, 2020 йил 24 февраль.

[4] Навоий вилояти ҳокимлиги Веб сайти. https://navoi.uz Навоий вилояти ҳокимлиги (navoi.uz)

[5] Хидирова Б. Саратон касаллиги барвақт аниқланади // Янги Ўзбекистон, 2020 йил 22 февраль.

2019 yildan boshlab markazimizda barcha sharoitlarga ega, yangi, zamonaviy maslahat diagnostik poliklinika binolari faoliyat yuritmoqda. Bemorlar murojaati, shifokor navbatiga yozilish, tekshiruvlarga yo‘naltirish va bo‘limlarga joylashish jarayonlari masofaviy, elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Markazlarda barcha hujjatlar elektron shaklda yuritilib, ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. Ushbu qulayliklar markazlar filiallarida ham tashkil etilgan bo‘lib, ovoragarchiliklar bartaraf etildi.

2022 yilda viloyatlardagi onkologiya dispanserlari Respublika onkologiya markazining hududiy filiallariga aylantirilib, yagona onkologiya tizimi yaratildi. Hududlarda 15 ta ixtisoslashgan filiallar, mavjud bo‘lib tumanlarda 237 ta onkolog kabinetlari tashkil etildi. Jumladan, 12 ta hududiy filiallar to‘liq kapital ta’mirlanib, 3 ta filial butunlay yangidan qurildi. Ushbu muassasalarni eng zamonaviy tekshirish va davolash uskunalari bilan jihozlash maqsadida Islom Taraqqiyot Bankining kreditlari 2 bosqichda jalb etildi.

Respublika onkologiya markazi va Toshkent shahar filialiga 2022 yilda 3 million AQSH dollari qiymatiga ega eng zamonaviy chiziqli tezlatkichlar xarid qilindi. Filiallar 11 ta distansion va 7 ta braxiterapevtik radioterapiya uskunalari bilan jihozlandi. Nur terapiya uskunalari soni 27 taga yetdi va barcha filiallar ushbu uskunalar bilan to‘liq ta’minlandi. bemorlar nur davo olish uchun boshqa viloyatga yoki poytaxtga kelishiga umuman ehtiyoj qolmadi va nur davoga navbat kutish holatlari bartaraf etildi[6].

Darhaqiqat, zamonaviy tibbiyotni yuqori texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, transplantologiya rivojiga alohida e’tibor qaratildi va bu davom etmoqda. Kelgusida mamlakatdamizda molekulyar va nuklear tibbiyot, robot yordamidagi operatsiyalar uchun uskunalar va davolashning boshqa yuqori texnologiyali jarrohlik usullarini joriy qilish ham ko‘zlanmoqda.

Kasalliklarni aniqlash va davolash amaliyotiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Xususan, 2024 yilda Ixtisoslashgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 dan, davolash usullari esa 800 dan oshdi. Xususiy tibbiyot rivojiga keng yo‘l ochilgani tufayli xizmatlar tarmog‘i va tanlash imkoniyati ko‘paydi. Davolash sifati va samaradorligi alohida e’tibor talab qiladi. Shu maqsadda 2 mingdan ziyod mutaxassis xorijda qayta o‘qitildi. Natijada hududlardagi yuqori texnologik operatsiyalar ulushi 61 foizga yetdi. 43 ta yo‘nalishdagi 191 ta klinik protokol xalqaro andozalar asosida yangilandi. Ixtisoslashgan markazlar va filiallarda bu yil 100 ming bemor imtiyozli yo‘llanma asosida davolandi. 7 ta ixtisoslashgan markaz sifat nazorati bo‘yicha xalqaro akkreditatsiyadan o‘tdi.

Xulosa qilib aytganda, ilg‘or diagnostika va davolash usullarining amaliyotga joriy etilishi, soha mutaxassislarining xorijiy o‘quvlarda qayta tayyorlanishi, elektron tibbiyot tizimi va sifat nazoratining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi sog‘liqni saqlash tizimini global raqobatbardosh darajaga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jismoniy faollikni ommalashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimizning qator farmon va qarorlari, jumladan, 2020 yilda qabul qilingan PF-6099-son farmoni sog‘lom hayot tarzini

[6] Касаллик жиддий, аммо даволаш имкони бор! // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2022-yil 3-oktabr.

hayotga keng tatbiq etishda huquqiy asos bo‘ldi. Bu yo‘nalishda aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi loyihalar, elektron platformalar (masalan, 1hls.uz), qadambozlik orqali rag‘batlantirish tizimi, mahallada tibbiy profilaktika tadbirlari, yoshlar va nogironlar uchun maxsus dasturlar amalga oshirildi. Sog‘lom hayot tarzi faqat jismoniy faollik bilan cheklanib qolmay, tibbiy madaniyatni oshirish, bemorlikning oldini olish, ilg‘or patronaj tizimlarini joriy etish kabi kompleks choralar bilan ta’minlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson salomatligi muxofaza qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatda sog‘lom raqobatni rivojlantirish, nodavlat tibbiyot muassasalarning moddiy texnika bazasini mustaxkamlashga qaratilgan e’tibor zamirida 2016 yilda 122 ta (840 o‘rinli 25 stasionar va 97 ta ambulator muassasalar) xususiy tibbiyot muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa 2021-yil 1 yanvar holatiga 266 tani (66 ta stasionar, 200 ta ambulator muassasalar) tashkil etadi. 2021-yilda 34 ta xususiy tibbiyot muassasa tashkil etilib, ularning soni 300 taga yetkaziladi. Ularda 3012 nafar xodimlar faoliyat yuritadi. (Vrachlar 608 nafar, o‘rta tibbiyot xodimlar 1247 nafar, boshqa soha xodimlari 1160 nafar).

2021 yilda Surxondaryo viloyatidagi nogironligi bo‘lgan ehtiyojmand shaxslarning 417 nafarini nogironlik aravachasi bilan, 234 nafarini eshitish moslamasi bilan, 338 nafari qo‘ltiq-tayoq va xassa, 386 nafarini protez-ortopediya buyumlari va boshqa reablitatsion ortopedik vositalari bilan bepul ta’minlanadi[7].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:


1. O’zbekistonda sog’liqni saqlash, 2021-yil 20-avgust.
2. Илк маротаба юракда мураккаб жаррохлик амалиёти ўтказилди // O’zbekistonda sog’liqni saqlash, 2021-yil 26-fevral.
3. Эшбоев Т. Навоий вилоят кўп тармокли тиббиёт марказида илк бор буйрак кўчириб ўтказилди // Халқ сўзи, 2020 йил 24 февраль.
4. Navoiy viloyati hokimligi veb-sayti. URL: https://navoi.uz/uz/menu/ochi-malumotlar
5. Хидирова Б. Саратон касаллиги барвақт аниқланади // Янги Ўзбекистон, 2020 йил 22 февраль.
6. Касаллик жиддий, аммо даволаш имкони бор! // O’zbekistonda sog’liqni saqlash, 2022-yil 3-oktabr.
7. Surxondaryo viloyat ko’p tarmoqli tibbiyot markazi joriy arxivi, 119-ish, 48-varaq.


[7] Surxondaryo viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi joriy arxivi, 119-ish. 48-varaq.